

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 4 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVIROOSIYO CHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Abduraхимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Rahimov Oйбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ .....	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI .....	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI .....	181-184
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330



<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI .....	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ .....	335-342
---	---------

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ .....	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ .....	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ .....	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI .....	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA .....	383-387
---	---------

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА .....	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH .....	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI .....	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH .....	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI .....	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI .....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYIY VAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHLTLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*

**IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING**

**INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532**

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*

**ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА**

**АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539**

## 07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ

**Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li**

Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Email : [qurbonovmurod1995@gmail.com](mailto:qurbonovmurod1995@gmail.com)

### “KASHKULI SALIMIY” ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida o'zining ijtimoiy, siyosiy hamda ma'rifatchilik faoliyati bilan alohida o'rin tutgan davlat va jamoat arbobi, tarixchi Mirza Salimbekning “Kashkuli Salimiy hamda tarixi muttaqadimin va muttaakhirin” asarida keltirilgan ma'lumotlar asosida Turkiya davlatchiligi tarixi haqida ma'lumotlar, xususan, Usmonli saltanati, shuningdek sultonlar faoliyati xususida Mirza Salimbekning qarashlari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Usmonli, sulton, poshsho, biy, rus-turk urushi, g'ozi, fath, Istanbul, Anqara, Makka, Madina, Tunis, Mojariston, Lohaston, Avstriya, Rossiya.

**Qurbonov Murodjon**

Navoi State Pedagogical Institute, doctoral student

### ILLUMINATION OF THE HISTORY OF THE OTTOMAN RULERS IN THE WORK OF "KASHKULI SALIMI"

**Abstract.** This article is based on the information presented in the work "Kashkuli Salimiy and his history muttaqadimin va muttaakhirin" by historian Mirza Salimbek, a state and public figure who occupied a special place in the Emirate of Bukhara at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century with his social, political and educational activities. Information about the history of Turkish statehood, in particular, the Ottoman Empire, as well as Mirza Salimbek's views on the activities of the sultans, will be covered.

**Key words:** Ottoman, Sultan, Pasha, Bey, Russo-Turkish War, Ghazi, Conquest, Istanbul, Ankara, Mecca, Medina, Tunisia, Hungary, Lohaston, Austria, Russia.

**Курбанов Муроджон Дехканбоевич**

Навоийский государственный педагогический институт, Докторант

### ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИИ ОСМАНСКИХ ПРАВИТЕЛЕЙ В РАБОТЕ "КАШКУЛИ САЛИМИ"

**Аннотация.** Данная статья основана на информации, изложенной в труде «Кашкули Салимий и его история муттакадимин ва муттаахириин» историка Мирзы Салимбека, государственного и общественного деятеля, занимавшего особое место в Бухарском эмирате в конце XIX века и начала 20 века с его общественной, политической и просветительской деятельностью. Будут освещены сведения об истории турецкой государственности, в частности, Османской империи, а также взгляды Мирзы Салимбека на деятельность султанов.

**Ключевые слова:** Османская империя, Султан, Паша, Бей, Русско-турецкая война, Гази, Завоевание, Стамбул, Анкара, Мекка, Медина, Тунис, Венгрия, Лохастон, Австрия, Россия.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N01>

**Kirish.** XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyoda yuz bergan jadal o'zgarishlar to'liqini Markaziy Osiyo davlatlarini ham chetlab o'tmadi. Uzoq davrlar davomida tashqi dunyodan uzoqlashib, o'z qobiqlariga o'ralashib qolgan xonliklar aholisi asta-sekin dunyo davlatlari bilan yuzlasha boshladilar. Bir qator mahalliy aholi vakillari Yevropa va Rossiya imperiyasida, shuningdek Usmoniylar imperiyasining markaziy shaharlarida bo'lib qaytdilar hamda o'z esdaliklarida sayohatlari haqida yozib qoldirdilar. Buxoro amirligidan bir qator elchilar o'zlariga yuklatilgan vakolatlar bilan birga tashrif buyurgan davlatlari madaniyati, taraqqiyoti va tarixi haqida o'z zamondoshlari uchun qimmatli ma'lumotlarni qoldirganlar. Ushbu maqolada Buxoro amirligida faoliyat yuritgan davlat va jamoat arbobi Mirza Salimbekning Turkiya davlatchiligi tarixi haqida ma'lumotlari, xususan Usmonli davlati, sultonlar faoliyati xususida qarashlari tahlil qilinadi. O'z davrida ajdodlarimizning xorij davlatlari haqida tasavvurlari sizga ham qiziqarli bo'ladi deb o'ylaymiz.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mirza Salimbekning ilmiy faoliyati, tarixiylik, ijtimoiy-madaniy qarashlari, uning ijodida tarixiy voqealar, xususan Turkiya davlatchiligi tarixi ham alohida o'rinni egallaydi. Bu mavzu doirasi keng va dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda nashr qilingan ishlar;
3. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

**Muhokama.** Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850—1930) — Buxoro amirligi va Buxoro respublikasida yashagan tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat [Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. № 1.]. U Buxoro amirligining ko'pgina tumanlari va viloyatlari hukmdori bo'lgan, amirning diplomatik missiyalarini bajargan, inglizlar bilan muzokaralarda ham qatnashgan. RSFSR qo'shinlarining Buxoro operatsiyasidan so'ng hibsga olinib, bir yildan so'ng ozodlikka chiqdi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qoshida ma'mur bo'lib ishladi, tarixiy tadqiqotlarda qatnashdi, eski kitoblar kutubxonasiga rahbarlik qildi [Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009. С.8-36.]. Mirza Salimbek o'z xotiralarida Buxoro amirligi va uning tarixi, Yevropa mustamlakachilari, inqilobchilar va Buxoro amirligining o'zida islohotlar tarafdorlari bilan bo'lgan og'ir munosabatlarini tasvirlaydi.

Mirza Salimbek o'zining "Kashkuli Salimiy tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin" asarida Usmonli saltanati podsholari haqida ham to'xtalib o'tadi [Кашкули Салимий (таворихи муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, "Бухоро" нашриёти, 2003 йил. Б.322-338.]. Usmonlilarni kelib chiqishini Salimbek Marv shahri bilan bog'laydi. Shuningdek, muallif Usmoniylar asoschisi To'g'rulbekni "Artug'ral" nomi bilan zikr qiladi: "Turkmaniya qabilalaridan bir guruhi Marvda yashayotgan edilar. Chingizxon xuruji davrida olti yuz elliginchi hijriy (1252 isoviy) yilida Artug'ral nomli turkman ulusining sardori o'z farzandlari va to'rt yuzta o'zining aqrabolari bilan, molu-mavoshlari bilan birga Marvdan hijrat qilib, Anatoliya tarafidagi bir viloyatga yetdilar" [Кашкули Салимий (таворихи муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, "Бухоро" нашриёти, 2003 йил. Б.322.]. Salimbek To'g'rulbek va uning yaqinlari Kichik Osiyoning mahalliy saljuqiy hukmdori Alouddinga dushmanlariga qarshi kurashda yordam berganligini ta'kidlaydi.

Alouddin dushmanlari yengilgach, To'g'rubekka katta ehtrom ko'rsatadi hamda To'g'rubekdan o'g'illaridan birini saroyiga yuborishni so'raydi. To'g'rubekning 3 nafar o'g'li bo'lgan. Qur'a tashlanib, natijada katta farzand Usmonbek sulton xizmatiga jo'natiladi. Usmonbek mohir sarkarda bo'lib yetishdi. Alouddin qo'shinlariga rahbarlik qilib, bir qancha shaharlarni fath etadi.

To'g'rubek 90 yoshida olamdan o'tadi. Alouddin vafotidan keyin toj-u taxt uchun voris yo'qligi sabab, Usmonbek(1299-1324) taxtga o'tiradi. Taxtga chiqqan paytda Usmonbek 34 yoshda bo'lgan va 27 yil podsholik qilgan. Ko'niya Bosforni egallagan. Keyingi hukmdor Usmonbekning o'g'li O'rxon (1324-1359) edi. O'rxon 39 yoshida 1326-yil taxtga o'tiradi. Usmon G'ozini nomi bilan tilla tanga zarb qildiradi. Uning davrida Aznoq, Ismir, Kiyu, Samand va Qoranol shaharlari egallanganligi qayd qilinadi. O'rxon 74 yoshida vafot etgan, qabri otasi qabri yonida Baras shahri yaqinida dafn qilingan.

Keyingi hukmdor Sulton Murodxon G'oziy(1359-1389) edi. Sulton Murodxon 35 yoshida taxtga o'tirgan. Anqara viloyatini zabt qilib bir necha bor Konstantinopol shahrini zabt qilish uchun qo'shin tortadi. Sulton Murodxon Bolqondagi urushlarda halok bo'lgani qayd qilingan. Sulton Murodxondan keyingi uch hukmdor haqidagi ma'lumotlar qo'lyozmadan tushib qolgan. Ular Boyazid I o'g'illari Sulaymon Chalabey, Muso Chalabeylar, Mehmed Chalabeylarning taxt uchun kurashi (1402—13), [Mexmed I](#) (1413—21), Murod II (1421—44; 1446—51)lar edilar.

Yettinchi podsho Muhammad Fotih (1451-1481) 1451-yilda taxtga o'tirgani qayd qilinadi. U tomonidan Konstantinopolning fath etilgani ham keltirib o'tilgan. "Sulton Muhammad Anatoliyani tamoman fath qilib, Usmoniylar davlat chegarasini kengaytirdi. Usmoniylarning davlat chegaralari Frot daryosigacha yetgan edi. Sulton Muhammad olti-yetti tilni yaxshi bilar edi. Handasa ilmida mohir edi. 31 yil podsholik qilib, ellik uch yoshida foni dunyoni tark qilib, Istanbulning Sharif jamoasiga dafn qilindi"[ Кашкули Салимий (таворихи муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, "Бухоро" нашриёти, 2003 йил. Б.326.].

Sakkinzinchi podsho sifatida Boyazid II(1481-1512) aytib o'tilgan. Hijriy 886(1481) yilida o'ttiz besh yoshida otasining taxtiga voris bo'lib, uning vaqtida mamlakat osoyishtalikda yashadi. Hech qayerga lashkar tortmadi. Ispaniyadagi musulmon va yahudiylar haddan tashqari tang ahvolga tushganlari uchun, sultondan iltimos qildilarki, Usmoniya davlati yerlariga hijrat qilsinlar. Kamol poshshoga va uning askarlariga farmon berdiki, musulmon va yahudiylarni Ispaniyadan ko'chirib, Istanbulga va boshqa joylarga olib kelib, ularni joylashtirsin. Ispaniyadan kelgan musulmon va yahudiylar turli viloyatlarda joylashtirildi. 32 yil saltanat qilib, yo'lda vafot qildi. Istanbulda otasining yonida dafn qilindi.

To'qqizinchi podsho Sulton Salimxon (1512-1520) edi. Uning davrida Eronda Shoh Ismoil hukmdor edi. Sulton Eron ustiga yurish qilib, Joldoron dashtida Eron qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Shundan keyin, Misr ustiga yurish qilib, Misrni egallaydi. Jazoir podshosi Xayraddin (Xayriddin) peshkash va tuhfarlar bilan o'z elchisini Sulton Salimxonga yuboradi. Makka amiri Abul al Barakat o'zining o'g'li va imomlarini Salimxonga yuborib, xalifalik unvonini Sulton Salimga berganini e'lon qiladi. Sulton Salim zamonidan boshlab, usmoniy sultonlar xalifa ham hisoblangan. Sulton Salim 54 yoshida vafot etgan.

O'ninchi hukmdor Sulton Sulaymon (1520-1566) edi. 26 yoshida taxtga o'tiradi. Serbiya, Eron, Gurjiston, Avstriya, Fransiyaga qarshi urushlar olib boradi. 74 yil umr ko'rib 48 yil davlatni boshqaradi. Qabri Istanbuldagi Sulaymoniya mozorida.

O‘n birinchi hukmdor Sulton Salim II (1566-1574) 45 yoshida taxtga o‘tiradi. Yaman, Qrim, O‘rta Yer dengizi orollariga qo‘shin tortadi. Tunisni egallaydi. 8 yil davlatni boshqarib, 53 yoshida vafot etgan.

O‘n ikkinchi hukmdor Sulton Murodxon III (1574-1595) 29 yoshida taxtga o‘tiradi. Jazoirda ko‘tarilgan xalq noroziligini bostiradi. Eron shaharlarini egallab oladi. 21 yil davlatni boshqarib, 50 yoshida vafot etgan.

O‘n uchinchi hukmdor Sulton Muhammadxon III (Mehmed III) (1595-1603) 29 yoshida 1591-yil taxtga o‘tiradi. 9 yil davlatni boshqargan. Mojariston (Vengriya)ga qarshi bir necha bor yurishlarni amalga oshirgan. Eron shohi Shoh Abbos bilan ham janglarda to‘qnashgan. 37 yoshida vafot etgan.

O‘n to‘rtinchi hukmdor Sulton Ahmad (1603-1617) edi. 14 yoshida hijriy 1012 yili taxtga kelgan. Uning davrida ham Eron bilan urushlar to‘xtamagan. Salimbek qayd etishicha, Sulton Ahmad juda taqvodor hukmdor bo‘lgan. Gavhardan yasalgan shamchiroq va olmos bo‘laklarini Madina shahriga yuborgani qayd qilingan. Sulton Ahmad 14 yil davlat boshqarib 28 yoshida vafot etgan.

Keyingi hukmdor Sulton Mustafoxon (1617-1618) 1 yil davlatni boshqargan.

O‘n oltinchi hukmdor Sulton Usmonxon II (1618-1622) 14 yoshida 1027 hijriy yilda taxtga kelgan. Lahiston (Polsha) hududlariga yurishlar amalga oshirgan. Bag‘dod shahrini Eron tasarrufidan chiqarib oladi. Sulton Usmonxon 4 yil davlatni boshqargan.

O‘n yettinchi hukmdor Sulton Murodxon IV (1623-1640) bo‘lib, 1032 hijriy yilida 12 yoshida taxtga o‘tirgan. Hukmdor yosh bo‘lganligi sababli davlatni onasi Mohpaykar boshqargan. Sulton 20 yoshida davlat ishlarini o‘z qo‘liga olgan. Murodxon IV qo‘shinni isloh qilgan. Sulton Eron bilan bir necha bor to‘qnashgan. 9 yil davlatni boshqarib 29 yoshida vafot etgan.

Keyingi hukmdor Sulton Ibrohimxon (1640-1648) Sulton Murodxon IVning ukasi edi. Sulton Gretsiya ustiga yurish qilib, bir qancha orollarni egallab oladi. Sulton Ibrohimxon 9 yil davlatni boshqargan.

Keyingi hukmdor Sulton Muhammadxon Robeh IV (Mehmed IV) (1648-1687) davri ichki ziddiyatlarga boy bo‘lgan. Sulton 7 yoshida taxtga keladi. Uning o‘rniga buvisi Mohpaykar saltanat ishlarini boshqargan. Bu esa amaldorlar o‘rtasida keskinlikni keltirib chiqargan. Sulton davrida Muhammad Ko‘porli poshsho va uning o‘g‘li Fozil Ahmad poshsholar Sadri a‘zam lavozimida ishlagan. Sulton davrida Avstriya, Vengriya va Gretsiya bilan urushlar olib borilgan. Sulton ov bilan ko‘p mashg‘ulligi sabab “ovchi sulton” deb ham atalgan. Sulton 41 yil davlatni boshqarib, 53 yoshida vafot etgan.

Yigirmanchi sulton Sulton Sulaymon II (1687-1691) bo‘lib, Sulton Muhammadxonning ukasi edi. Sulton 3 yil davlatni boshqarib, Avstriya va Rossiya bilan urushlar olib borgan.

Yigirma birinchi hukmdor Sulton Ahmadxon II (1691-1695) bo‘lib, 4 yil podsholik qilgan. Uning davri ham urushlar bilan kechgan.

Yigirma ikkinchi podsho Sulton Mustafo II (1695-1703) edi. Hijriy 1106 yil taxtga kelgan. U ham Avstriya, Vengriya va Rossiya bilan urushlar olib borib, bir qancha g‘alabalarga erishgan. Sulton 9 yil davlatni boshqarib, 41 yoshida vafot etgan.

Yigirma uchinchi hukmdor Sulton Ahmadxon III (1703-1730) bo‘lib, hijriy 1115 (milodiy 1703) yil taxtga kelgan. Uning davrida Rossiya Pyotr I hukmdor edi. 1712-yil Prut daryosi bo‘yida rus qo‘shinlari mag‘lub etilgan, Pyotr I ham jangda asirga tushib, sulh evaziga

ozod qilingan. Sulh shartlariga binoan Rossiya Qora dengizga o‘z kemalarini tushirmaslik majburiyatini olgan. Sulton Ahmadxon III davrida Eron shohi Nodirshoh Usmonlilar yerlariga yurish qilib, bir qancha hududlarni egalladi. Sulton davrida Istanbulda matbaa ochilgan. 28 yil davlatni boshqarib, umrining oxirida saltanat ishlaridan voz kechgan. 65 yoshida vafot etgan.

Yigirma to‘rtinchi hukmdor Sulton Mahmudxon (1730-1754) hijriy 1143 (1730) yil taxtga kelgan. Uning davrida Eron va Rossiya bilan harbiy to‘qnashuvlar olib borilgan. Serbiya hududlari bosib olingan. Sulton Istanbul shahrida 4 ta kutubxona ochtirgan. 25 yil davlatni boshqarib, 60 yoshida vafot etgan.

Yigirma beshinchi podsho Sulton Usmonxon III(1754-1757) 56 yoshida hijriy 1168 (1754) yil taxtga kelgan. Uning davrida urushlar bo‘lmagan. Sulton 3 yil davlatni boshqarib, 59 yoshida vafot etgan.

Yigirma oltinchi hukmdor Sulton Mustafoxon III (1757-1774) bo‘lib, hijriy 1171-yilda taxtga kelgan. Sulton davrida Usmonlilar Rossiyadan qaqshatqich mag‘luyatga uchradilar. Imperiatritsa Yekaterina davrida rus harbiy floti hatto O‘rta Yer dengiziga ham kirib bordi. Sulton 16 yil davlatni boshqarib, 57 yoshida vafot etgan.

Yigirma yettinchi hukmdor Sulton Abdulhamid I(1774-1789) bo‘lib, 1187-yil saltanat taxtiga o‘tirgan. Sulton davrida Rossiya bilan sulh tuzilgan. Misrda Shayx Tohir Ali isyoni bostirilgan. Rossiya Turkiyaga qarshi Avstriya bilan ittifoq tuzib bir qancha urushlarga kirgan.

Qo‘lyozmaning shu qismidan betlari yirtilib, qolgan ma‘lumotlar tushib qolgan. Keyingi hukmdorlar: [Salim III](#) (1789-1807), [Mustafo IV](#) (1807—08), [Mahmud II](#) (1808 – 39), [Abdulmajid](#) (1839—61), Abdulaziz (1861-76), [Murod V](#) (1876), [Abdulhamid II](#) (1876-1909), [Mehmed V Rashid](#) (1909—18), [Mehmed VI Vaqiduddin](#) (1918—22), Mustafo Kamol (Otaturk) tashabbusi bilan Turkiyada sultonlik tugatilgach (1922-yil 1 noyabr), so‘nggi sulton Mehmed VI xorijga jo‘nab ketishga majbur bo‘lgan[К.Э.БОСВОПТ МУСУЛМОН СУЛОЛАЛАРИ (йилнома ва шажаралар бўйича маълумотнома) Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти 2007.Б.103-105.].

**Natijalar.** Mirza Salimbek Istanbulda bo‘lib qaytgan Mulla Jo‘ra Pirmastiy bilan yaxshi munosabatda bo‘lgan. Mirza Salimbek Turkiya tarixiga doir ma‘lumotlarni yig‘ishda Mulla Jo‘ra Pirmastiydan katta yordam olgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Mirza Salimbek Usmoniyilar davlati tarixini tasvirlar ekan, ko‘proq e‘tiborni hukmdorlar faoliyati va tashqi siyosat masalalariga qaratadi. Chunki muallif uzoq yillik siyosiy faoliyatida amirlarga xizmat qilib, shu tuzumni saqlanib qolishini istar edi. Muallifning qarashlaridan uning kuchli markaziy hokimiyat tarafdori ekanligini ilg‘ab olish mumkin.

**Xulosa.** Mirza Salimbekning jahon mamlakatlari tarixi, xususan Turkiya tarixi haqidagi qarashlari ahamiyat molikdir. Mirza Salimbek Turkiya tarixini tasvirlar ekan kuchli markaziy hokimiyat tarafdori ekanligini yashirmaydi. Hukumatga qarshi norozilik, isyonlarni qo‘llab-quvvatlamaydi. Ularga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ladi. Muallif hukmdorlar faoliyatini qisqa satrlarda keltirib, eng muhim deb topgan voqealarni tasvirlaydi. Muallif keltirgan ma‘lumotlar hammasi to‘g‘ri deb bo‘lmaydi. Bir qancha joy nomlari, tarixiy sanalarni keltirishda xatolikka yo‘l qo‘yilgan.

Mirza Salimbekning ko‘plab asarlari qo‘lyozma holida bo‘lib, bu asarlarni o‘rganish ham bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanib, ularni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilib, qayta nashr qilinsa keng kitobxonlarimiz uchun katta yangilik bo‘lar edi.



**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Кашкули Салимий (тавориhi муттақадимин ва муттаахирин), Нарзулло Йўлдошев таржимаси, “Бухоро” нашриёти, 2003 йил. Б.342.
2. Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. № 1.
3. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.С.424.
4. К.Э.БОСВОРТ МУСУЛМОН СУЛОЛАЛАРИ (йилнома ва шажаралар бўйича маълумотнома) Тошкент Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти 2007.Б.160.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 4 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).